




ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

5  
2021



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2021-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 5, 2021

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov*

*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov*

MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>7</b>
Marg'uba MIRQOSIMOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida integratsiyalashgan o'qitish jarayonlarini tashkil etish .....	7
Bobirjon ERGASHEV. Professional ta'lim tizimi bitiruvchilarining kasbiy ko'nikmalarini egallashlarida pedagogik strategiyalar.....	14
Sevara ADIZOVA. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim muassasasining o'quv jarayonidagi shart-sharoitlar tahlili.....	19
Rita PAKHRATDINOVA. Designing students 'creative activity on national crafts as a factor of learning ..	24
Lola DJURAYEVA. Oliy ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda "flipped classroom" texnologiyasidan foydalanish .....	30
Tohir NAZAROV. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi loyihaviy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi .....	34
Shabon FARMONOVA. Ta'lim mazmunini loyihalashning didaktik imkoniyatlari.....	37
Rustam SARIYEV. Sirtqi ta'lim shakli talabalarini o'qitish jarayonida elektron ta'limning roli va ahamiyati .....	41
Наргиз ДЖУМАЕВА. "Синквейн" как эффективный метод развития устной и письменной речи студентов.....	46
Firuz NURULLOYEV. Zamonaviy o'qitish usullari: an'anaviy va zamonaviy ta'limning afzalliklari .....	51
Хикмат БОБОМИРЗАЕВ, Д.УМУРЗОКОВ, Нафосат АКМАЛОВА. Особенности развития компетентно-педагогической профессии.....	57
Bobir ZOKIROV. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining madaniy-ilmiy hamkorlik tarixi: muammolar va yechimlar.....	60
Mavluda KALANDAROVA. XIX asr Xiva xonligi solnomalarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy muhitning yoritilishi .....	64
Sherzod ABDURAHMANOV. Talaba-yoshlarni vatanparvarlikka o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ..	69
Xol XUDOYQULOV, Gulchexra ABDULLAYEVA, Sardorbek SHARIFZODA. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari.....	78
Manzura YULDASHEVA. Muqaddas ilohalar - salomatlik tayanchi .....	83
Dilrabo XUDOYQULOVA. Badiiy obrazlar vositasida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash .....	85
Abror ASKAROV. Multimediali darslarni loyihalashning ayrim jihatlari .....	88
Madinaxon TO'RABOYEVA. Pedagogik fanlar misolida talabalarning shaxsiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari.....	91
Ирода АСЛОНОВА, Озода ХОДИЕВА. Сравнительная оценка эффективности применения интерактивных методов обучения .....	94
Mahmud ASHUROV. Milliy g'urur va iftixor, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tushunchalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmun mohiyati .....	97
Анвар ЭРГАШЕВ. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения.....	103
Zebo QOSIMOVA. Ta'lim jarayonida axborotlarga ratsional yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish ....	108
Zafar ASRAYEV. O'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish .....	110
Mirjalol JO'RAYEV. Elektr yuritmalari tezligini rostdash usullari.....	114
D. XOTAMOVA. Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida .....	118
Hasan TO'XTAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari .....	121
Azamat SAIDOV. Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari.....	124
Qutlug'murod QODIROV. Islom madaniyati tarixini o'rganishda pedagogik va psixologik fikrlarni tahlil etishning o'ziga xos jihatlari.....	128
M. Kushanova. O'smirlar agressiv xulq-atvorining xorij va mamlakatimizda o'rganilganlik holati.....	131
Alisher SHARIPOV. O'smirlarda (11-15 yosh) irodaviy fazilatlarini tarbiyalashning ijtimoiy-ma'naviy asoslari.....	137
J. SHUKUROV. Bo'lajak ofitserlar faoliyatida emotsional intellektning roli .....	140
Ziyodullo ELOV. Qobiliyatning shaxsi psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti .....	143
Olmos AVEZOV. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti .....	145

Tarbiya xatti-harakatlarini to'g'rilash yoki cheklovlar, "takliflar" orqali qoidalaridan chetga chiqishning oldini olishga qaratilgan.

Muloqotning ustuvor usullari: ko'rsatma, eslatma, cheklov, jazolardan iborat. O'zaro ta'sir taktikasi: diktatura va vasiylik.

Kattalar o'zi bolalar o'rtasidagi nizolarni hal qiladi: haqni qo'llab-quvvatlaydi va aybdorlarni jazolaydi.

Kattalar barcha bolalarga belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi. Ishonch: bola kattalarning bevosita nazorati ostida yaxshiroq va ko'proq narsani o'rganadi. Kattalar tajribasini o'rganish – rivojlanishning eng yaxshi usuli.

Kattalar bolalarning ish natijalarini baholaydi, xatolarini qayd etadi va tuzatadi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda hukmronlik usuli kattalarning bolaga bevosita ta'siri, o'zaro savol-javob shakli.

Ta'limda "o'rtacha" bir bolaga bilim miqdoriga mo'ljallangan didaktik materialdan foydalaniladi.

**Xulosa** qilib aytganda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - o'ta muhim masala, chunki yondashuv qay darajada individual bo'lsa, har bir bola shu darajada mo'ljaldagi ta'lim natijalariga erishishning ehtimoli ortadi va shu tufayli dasturning amalga oshirilishi oson kechadi. Muayyan fan bilan bog'liq muammolar kamayadi, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar oshadi. Individuallashtirish ta'lim jarayonini bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab-ehtiyojlari bilan moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda bolalarning bilim doirasi kengayib, o'ziga nisbatan hurmat oshadi. Ularda yanada murakkabroq masalalarni hal etishga tayyorgarlik hissi paydo bo'ladi.

Bolani insoniy qadriyatlar dunyosi bilan tanishtirishga yordam berish. Yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va salbiy baholashni e'tiborsiz qoldirish.

Muloqot usullari bolaning pozitsiyasini egallashni, uning nuqtayi nazarini hisobga olishni va uning his-tuyg'ulariga e'tibor berishni talab qiladi. O'zaro ta'sir taktikasi – hamkorlik.

Kattalar bolalar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilishga va mustaqil ravishda ularni hal qilish yo'llarini izlashga undaydi.

Kattalar har bir bolaning o'z tajribasini samarali to'plashga hissa qo'shadi. Ishonch: bola tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlar jarayonida mustaqil ravishda o'rganadi. To'liq va o'z vaqtida rivojlanish uchun eng muhim narsa bu o'z tajribasini o'rganishdir.

Kattalar bolalarni o'zlarining ishlari natijalarini mustaqil ravishda baholashga va xatolarni tuzatishga undaydilar.

Bevosita ta'lim – bu ta'lim faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli emas. Ta'limning eng samarali usullaridan biri bu o'yin, tajriba o'tkazish. Har xil turdagi faoliyatlarni birlashtirish.

Didaktik material har bir bolaning rivojlanishi va qobiliyatiga mos ravishda ishlatiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Turdieva M. J. The essence of organizing the process of preschool education and education on the basis of an individual approach //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – №. SP. – C. 3-3.
2. Turdieva M. J., Olimov K. T. Game Technologies As An Innovative Type Of Student-Centered Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 183-187.
3. Turdiyeva M.J., Islomova M. I. Q. A model for developing the creative abilities of preschool children based on a person-centered approach //Builders Of The Future. – 2021. – C. 10-14.
4. Турдиева М. Д. Инновационный подход к дошкольному образованию //Проблемы науки. – 2021. – С. 71.
5. Juraqulovna T. M. et al. Types of person-centered technology in the educational process //E-Conference Globe. – 2021. – C. 105-107
6. Rasulova L. G. Formation Of Abilities And Skills In Measuring Activity In Preschoolers //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 363-369.
7. Рахмонова Г. Ш., Чоршамова А. Ф. К. Значимые стороны национальных игр в процессе воспитания дошкольников //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
8. Гафурова Д. Х. Роль Детской Литературы В Развитии Детей Дошкольного Возраста //Academy. – 2020. – №. 12 (63).
9. Temirovna O. L., Chorievna R. L. Methodology to organize independent work of students in mathematics lessons in primary school //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 10. – C. 387-393.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOYILASHUVIDA JISMONIY TARBIYANING TA'SIRI**

*Maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarining ijtimoiylashuviga jismoniy tarbiyaning ta'siri ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etilgan va amaliy jihatdan asoslangan, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va ijtimoiy tajribasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro bog'liqligi aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** o'quvchilar, jismoniy tarbiya, ijtimoiylashuv, salomatlik.

*В статье исследуется влияние физического воспитания на социализацию младших школьников и выявляется взаимосвязь социально-педагогических условий, направленных на улучшение физического развития и социального опыта учащихся.*

**Ключевые слова:** ученики, физическое воспитание, социализация, здоровье.

*The article examines the influence of physical education on the socialization of primary schoolchildren and reveals the relationship of social and pedagogical conditions aimed at improving the physical development and social experience of students.*

**Key words:** students, physical education, socialization, health.

**Kirish.** Bugungi kunda shaxsning rivojlanishi va shakllanishi ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga xizmat qiladigan ko'p qirrali jismoniy tarbiya bilan bog'liqligi alohida ahamiyatga ega. Bunga oilalar, ta'lim muassasalari va umuman jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali erishiladi. Jismoniy tarbiya - jismoniy va aqliy mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyorlikni ta'minlaydigan jismoniy salohiyat va jismoniy sifat jihatidan sog'lom va barkamol insonni shakllantirishning maqsadli va tizimli jarayoni hisoblanadi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi har doim shaxsning jismoniy va har tomonlama rivojlanishi bo'lib, u jismoniy kamolot, sog'lik, kuch, moslashuvchanlik, chaqqonlik, gigiyena ko'nikmalarining barqarorligi, sport va madaniyatga qiziqish kabi fazilatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiyaning majburiy vazifalaridan biri bolani yoshligidan ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi eng muhim elementlaridan biri bo'lgan sog'lom turmush tarzining zarurligi, jismoniy tayyorgarlik, muntazam jismoniy faollik zarurligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdir [6].

Jismoniy tarbiya, ayniqsa, kichik maktab yoshida muhim ahamiyatga ega, bunda bola organizmi nisbatan tez rivojlanib, uning asosiy harakatlari, ijtimoiy tajriba orttirish shakllanadi, lekin bu yoshda tana hali ham zaif va kasalliklarga ojizdir. Muhim ijtimoiy vazifalar qatorida mamlakatimizda aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, bolalar va o'smirlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirishni birinchi o'ringa qo'yadi. So'nggi yillarda mamlakatda bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi. Har bir tumanda, hatto, chekka shahar va qishloqlarda ham bolalar va o'smirlarning sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi tobora ko'payib bormoqda, yosh avlodning jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, dam olish muammolarini hal qilish uchun sport markazlari, klublar barpo etilmoqda. Bugungi kunda jismoniy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati shunday darajaga yetdiki, undan zararli odatlarga qarshi kurashda foydalanish uchun haqiqiy imkoniyatlar yaratiladi. Salomatlik insonning jismoniy, gigiyenik, aqliy va ijtimoiy madaniyatini o'z ichiga oladi.

**Asosiy qism.** Shaxsning ijtimoiylashuvi inson hayoti davomida sodir bo'ladi va uni bolalik davrida muvaffaqiyatli amalga oshirishining asosi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez jismoniy, aqliy rivojlanish va sotsializatsiya mexanizmlarini o'zlashtirish, ijtimoiy xulq me'yorlarini o'zlashtirish davri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatning barcha sohalarida rivojlanishi sharoitida bolalarni turli yoshdagi ijtimoiylashuvi mexanizmini o'rganish masalasi katta ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, jamiyatimiz taraqqiyotining tez va o'zgaruvchan sharoitida bugun va ertaga bolada qanday jismoniy, ma'naviy va shaxsiy qadriyatlar shakllanishiga va uning yangi ijtimoiy munosabatlarga qanchalik tayyorligiga bog'liq.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** M.Y.Vilenskiy [1], Y.N.Litvinov [2]lar o'zlarining asarlarida maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatga bo'lgan qiziqishini hamda sportning boshqa turlariga bo'lgan qiziqishini kamayib borish muammosiga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydilar. V.D.Sonkin, M.P.Suyurov va boshqa tadqiqotchilarining fikriga ko'ra o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishining pasayishi yosh avlod salomatligining yomonlashuviga olib keladi.

## #5. 2021 PEDAGOGIK MAHORAT\*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО\*PEDAGOGICAL SKILL

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining nazariy va amaliy asoslarini R.S.Salomov [3], T.S.Usmonxo'jayev [4], A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev [5], A.Q.Atoyev, H.A.Meliyev, P.F.Lesgaft, V.G.Norakidze, O.A.Chernikova, L.P.Matveyev kabi yurtimiz va chet el olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda o'z aksini topgan.

Shaxsning ijtimoiylashuvi G.M.Andreyeva, V.D.Semenov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, Y.Smirnov va boshqalar o'zlarining asarlarida maktabgacha yoshdagi bolani ijtimoiylashtirish masalasini tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilarning oilaviy tarbiya muammolari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari va asarlari jismoniy tarbiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvi jarayoniga, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy-pedagogik shartlari va bolalarni oilada ijtimoiylashtirish jarayoniga ta'siri to'liq hal qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Odatda bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga g'amxo'rlik uning perinatal rivojlanishidan boshlanadi. Bu homilador ayollarni parvarish qilishda, homiladorlik va tug'ish bilan bog'liq qator marosimlarni bajarishda namoyon bo'ladi va oilada ijobiy hissiy kayfiyatni yaratadi.

Ota-onalar bir qancha urf-odatlar va an'analar orqali bolaning tanasini davolashda, sog'lig'i mustahkamligi, chidamliligi, uzoq umr ko'rishi, shaxsiyat xususiyatlarining rivojlanishi va boshqalar bilan ajralib turadigan o'tlar bilan cho'milish, she'rlar, hazillar, duolar o'qish bilan shug'ullanadilar. Shuningdek, ism qo'yish (jismoniy fazilatlar mazmuni bilan), birinchi emlash, birinchi soch olish, o'g'il bolalarni sunnat qilish (balog'at yoshi va shaxs sifatida tan olinishi) bilan bog'liq bir qancha mavjud marosimlarda o'g'il va qiz bolalarni harakatli o'yinlarga jalb etish, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishiga g'amxo'rlik va e'tibor bolalarning ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Jismoniy tarbiyaning oilaviy an'analari o'ziga xos ustuvorliklarga ega, ularning ta'lim vazifalarini bajarish tizimi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: bola tanasining salomatligi, axloqiy rivojlanishi, bolalarda ijodkorlik va kognitiv ko'nikmalarning rivojlanishi. Bizning fikrimizcha, bolalar jismoniy tarbiyasi an'analarga ta'sir ko'rsatishning asosiy omili - bu jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari va takliflari bo'lib, ular jismoniy salomatlikni mustahkamlash va uning ijtimoiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishda foydalanadilar.

Oilaviy an'analarni urf-odat va an'ana, yangi ijtimoiy va maishiy marosimlar va ijtimoiy-siyosiy tadbirlar (bola tug'ilishi, uning ta'lim muassasalariga ta'lim olishi, madaniy-ko'ngilochar tadbirlarda, sport va sog'liqni saqlash tadbirlarida ishtirok etish) bolalarning ijtimoiy hayotni targ'ib qilish va jismoniy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ba'zida ota-onalar oilaning moddiy ahvoli, sport inshootlarining yetishmasligi, bolaning sog'lig'i holati (tez-tez kasal bo'lib qolish, jismoniy rivojlanmaganligi) va uning sport bilan shug'ullanishni istamasligi va shug'ullana olmasligi tufayli jismoniy holatini yaxshilashni xohlashadilar.

Oilaviy muhit pedagogikasi va bolalarni jismoniy tarbiya va ijtimoiylashtirish vazifalarini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish zarurati quyidagilardan kelib chiqadi:

- bolalarning jismoniy rivojlanishining oilaning moliyaviy va ijtimoiy holatiga bog'liqligi;
- jismoniy tarbiyaning bolaning shaxsiy fazilatlarini bilan o'zaro ta'sirini ta'minlash;
- kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va rivojlantirishda onalarning an'anaviy yetakchi o'rni;
- ota-onalarning tibbiy, psixologik va pedagogik bilimlarini oshiradigan uy xo'jaliklari va tibbiyot xodimlari, ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida hamkorlik zarurligi.

Jismoniy tarbiyada bolalarni ijtimoiylashuviga yordam beradigan milliy va oilaviy an'analardan foydalanish yashash joyiga (shahar, qishloq), oilaning yosh tuzilishiga va kattaligiga, ota-onalarning ta'lim darajasiga bog'liq. Zamonaviy jamiyatda oilalarda quyidagi an'analarni mavjud.

№	Jismoniy tarbiyaning mavjud oilaviy an'analari	So'rovda qatnashgan ishtirokchilar soni	Foizda %
1	Ertalabki mashqlar bilan shug'ullanish	26	6,5%
2	Ertalabki yugurish bilan shug'ullanish	40	10,0%
3	Yozda suzish bilan shug'ullanish	41	10,2%
4	Yurish (qechqurun yashash hududida)	40	10,0%
5	Shaharda, yashash joyida sayr qilish	101	25,2%
6	Birgalikda harakatli o'yinlarni tashkil etish	18	4,5%
7	Sport musobaqalarida ishtirok etish	198	49,5%
8	Televezor orqali sport musobaqalarini tomosha qilish	86	21,5%
9	Qishda chang'ida uchish	37	9,2%
10	Jismoniy tarbiyaning oilaviy an'analari yo'q	149	37,2%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya bo‘yicha an‘anaviy ish shakllaridan foydalanish o‘tanalarni bilan maxsus tadbirlarni yanada tashkil etishni talab qiladi. Zamonaviy sharoitda madaniy, ko‘ngilochar va sog‘lomlashtirish-sport muassasalarini tijoratlashtirish, maktabdan tashqari sport inshootlari soni ko‘payishi, ayniqsa, yangi qishloq, shahar va tuman sport binolarida bolalarning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadigan jismoniy va axloqiy-irodaviy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish imkoniyati kengaydi.

**Xulosa.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalar to‘plami boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuviga jismoniy tarbiyaning ta‘siri yuqori ekanligi asoslandi. Shuni inobatga olib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuvini yuzaga keltirishda oilada jismoniy tarbiyani to‘g‘ri tashkil etish va mavjud an‘analardan unumli foydalanish zaruriyati mavjud.

2. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiya va ijtimoiylashuvi ahamiyatini oshirish tendensiyasi bolaning oilada tug‘ilishi, ijtimoiy tajribaga ega bo‘lishi va shaxs sifatida shakllanishi bilan baholanadi. Shaxs o‘zi tarbiyalangan va shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimini aks ettiradi. Bolaning jismoniy rivojlanishi, ruhiy va jismoniy salomatligi va farovonligi, oila va jamiyatning qiymati sifatida, ijtimoiylashuv asosini tashkil qiladi.

3. Uy sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiya va ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari ta‘lim tushunchasining an‘anaviy afzalliklaridan kelib chiqadi. Aniqlanishicha, oilada kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi va ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari oila va milliy urf-odatlarining ta‘siriga asoslangan bo‘lib, ularga rioya qilish bolaning ichki rivojlanishi paytidan boshlanadi. Urf-odat va marosimlarga rioya qilish ona va bolaning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishga qaratilgan. Bolaning jismoniy va ma‘naviy rivojlanishida yuz beradigan har qanday o‘zgarishlar o‘tanalarning doimiy nazorati ostida bo‘lishi lozim.

4. Eksperimental va tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat boshlang‘ich ta‘limning bir qismi sifatida integratsiyalash, individuallashtirish, oilaning jismoniy tarbiyadagi rolini oshirish, jismoniy madaniyat darajasini oshirish, tarbiya uchun mas‘uliyatni oshirish, jismoniy fazilatlar va axloqiy irodani shakllantirish bolalarning ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadi.

5. Intellektual va axloqiy rivojlanish darajasi, jismoniy va axloqiy-irodaviy fazilatlarini egallash ijtimoiy tajribani egallash, yangi ijtimoiy sharoitga moslashishni shakllantirish bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu fazilatlarining barchasi bolaning jismoniy va ruhiy holatiga va sog‘lig‘iga bog‘liq bo‘ladi.

6. Bolalarni oilada jismoniy tarbiyalash va ijtimoiylashuvi asab tizimini himoya qilish, maxsus qulay psixologik muhitni va sport inshootlarini yaratish, sanitariya-gigiyenik me‘yorlar (madaniy tadbirlar va bolalarni sport bilan davolash, xalq o‘yinlaridan foydalanish, oilaviy bayramlar, ko‘ngilochar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish) bilan belgilanadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Виленский М.Я., Чичикин В.Т., Торочкова Т.Ю. Физическая культура. Методические рекомендации. 5-7 класс. –М.: “Просвещение”, 2014 г. -142 ст.
2. Литвинов Е. Физическая культура. 6 класс: Пособие для учителя. -М.: “Айрис-Пресс”, 2004 г.
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. –T., 2005 y.
4. Usmonxo‘jayev T.S. Jismoniy tarbiya. -T.: “O‘qituvchi”, 2011.
5. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent: Guliston davlat universiteti, 2016.
6. Юсупова З.Ш. Принципы и методы организации физкультурно-спортивных мероприятий в образовательных учреждениях //Academy. – 2019. – №. 5 (44).
7. Djumaturdiyevich A. S. Yusupova Zulfizar Sharipovna //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 271.